

## Yaponiya diplomati bilan uchrashuv

SMTIda Yaponiyaning O'zbekistondagi elchixonasi maslahatchisi A.Suda bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Suhbat davomida tomonlar O'zbekiston Respublikasida harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar, o'zbek-yapon munosabatlarining bugungi holati va istiqbollari haqida o'zaro fikr almashishdi.

Yaponiya diplomatining so'zlariga ko'ra, so'nggi ikki yil davomida O'zbekiston barcha sohalarda sezilarli natijalarni qo'lga kiritdi. Ayniqsa inson huquqlari sohasidagi ro'y bergan ijobiy o'zgarishlarga aloxida etibor berildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan 2018 yilning noyabr oyida Samarqand shahrida o'tkazilgan inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumi shu o'zgarishlarning naqadar jadallik bilan olib borilayotganligi haqida dalolat berayotganligi ta'kidlab o'tildi.



Ikki taraf ham O'zbekiston va Yaponiya o'rtasida hamkorlikning ko'plab sohalarda ayniqsa, savdo-iqtisodiy, investitsion-texnologik, turizm va ta'lim tarmoqlarida yuqori salohiyatga ega ekanligiga iqror bo'lgan holda, mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanilmayotganligini ta'kidlab o'tishdi. A.Sudaning bildirgan fikriga ko'ra, Yaponiya sayyohlari uchun vizing bekor qilinishi ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning rivojida muhim voqea bo'ldi. Buning natijasida 2018 yilda Yaponiyadan O'zbekistonga tashrif buyurayotgan turistlar oqimi sezilarli darajada oshdi.



Uchrashuv yakunida SMTI va Toshkentdagi Yaponiya elchixonasi o'rtasidagi aloqalarning jadal rivojlanishiga ikki tomonlama qiziqish bildirildi.

